



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	10
Mirzaraxmonova Maftuna Ibroximjon qizi	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv	13
Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
Mahmudova Shoira Shavkat qizi	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
Gadoyeva Muborak Jumaqulovna	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna	
Xurshid Do'stmuhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati	37
Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	41
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
Joldasov Ixtiyor Suyundikovich	



O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KITOBXONLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Mahmudova Shoira Shavkat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga oid qabul qilingan farmon va qarorlar, shuningdek, PIRLS xalqaro baholash dasturi talablarga asosiy metodologik manba sifatida tahlil qilingan. Maqolada an'anaviy o'qitish metodlaridan innovatsion strategiyalarga o'tishning afzalliklari pedagogik eksperiment natijalari asosida yoritilgan. Tadqiqot yakunida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, mutolaa madaniyati va o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, kitobxonlik kompetensiyasi, innovatsion yondashuv, PIRLS, boshlang'ich ta'lim, 4K-ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash, pedagogik eksperiment.

Abstract: The theoretical and practical foundations for developing students' reading competence in primary school reading literacy lessons are explored in this study. The decrees and resolutions adopted by the President of the Republic of Uzbekistan on enhancing reading culture, as well as the requirements of the PIRLS international assessment program, were analyzed as the main methodological sources. The article highlights the advantages of transitioning from traditional teaching methods to innovative strategies based on the results of a pedagogical experiment. At the conclusion of the study, practical recommendations were developed to improve students' critical thinking, reading culture, and motivation for reading.

Key words: reading literacy, reading competence, innovative approach, PIRLS, primary education, 4K-skills, critical thinking, pedagogical experiment.

Аннотация: Исследованы теоретические и практические основы развития читательской компетенции учащихся на уроках читательской грамотности в начальных классах. В качестве основных методологических источников проанализированы указы и постановления Президента Республики Узбекистан, направленные на повышение культуры чтения, а также требования международной программы оценки PIRLS. В статье на основе результатов педагогического эксперимента обоснованы преимущества перехода от традиционных методов обучения к инновационным стратегиям. По итогам исследования разработаны практические рекомендации, направленные на развитие критического мышления, культуры чтения и мотивации к чтению у учащихся.

Ключевые слова: читательская грамотность, читательская компетенция, инновационный подход, PIRLS, начальное образование, 4K-навыки, критическое мышление, педагогический эксперимент.

KIRISH

Jahon ta'lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish, shaxsning ijtimoiy-emotsional va intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishning eng muhim omillaridan biri sifatida o'qish savodxonligi hamda kitobxonlik madaniyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari mislsiz darajada rivojlangan davrda o'quvchilarning axborotlar oqimi ichidan keraklisini saralay olishi, matnни chuqur anglab, tanqidiy fikrlashi hamda uni amaliyotga tatbiq eta bilishi hayotiy zaruratga aylandi. Shu sababli an'anaviy tez va ifodali o'qish tushunchasi o'rnini xalqaro standartlarga mos keluvchi o'qish savodxonligi va kitobxonlik kompetensiyasi kabi keng qamrovli tushunchalar egallamoqda.

Yangi O'zbekistonda barpo etish sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Bu

borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qator farmon va qarorlar sohaga oid mustahkam normativ-huquqiy bazani yaratib berdi. Xususan, davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan Beshta muhim tashabbusning to'rtinchisi bevosita yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga qaratilgani diqqatga sazovordir. Mazkur tashabbus doirasida ta'lim muassasalarida badiiy adabiyotlarga bo'lgan qiziqishni oshirish bo'yicha mutlaqo yangi muhit yaratildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi PQ-3271-sonli¹ qarori mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini umum-milliy harakat darajasiga olib chiqdi^[1]. Mazkur hujjatda o'quvchi-yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning dunyoqarashini kengaytirishda badiiy adabiyotning o'rnini mustahkamlash, ta'lim muassasalarini zamonaviy va mazmunli adabiyotlar bilan ta'minlash mexanizmlari qat'iy belgilab berilgan.

Ta'lim mazmunini xalqaro standartlarga moslashtirish yo'lidagi yana bir muhim qadam – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli² Farmoni hisoblanadi^[2]. Ushbu farmonga muvofiq, maktab ta'limida o'quvchilarning bilish, fikrlash va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan Milliy o'quv dasturi amaliyotga joriy etildi. Eng muhimi, ta'lim sifatini baholashning PIRLS (Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matni o'qish va tushunish darajasini baholash) hamda PISA (O'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarini baholash) kabi xalqaro dasturlariga tayyorgarlik ko'rish va muvaffaqiyatli ishtirok etish vazifasi qo'yildi. Bu esa, o'z navbatida, o'qish darslarida pedagogik jarayonni an'anaviy yodlash va o'qish texnikasidan matn ustida mustaqil ishlash, mantiqiy xulosa chiqarish hamda o'qilgan asar g'oyasini hayotiy vaziyatlarga bog'lay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga transformatsiya qilishni taqozo etmoqda.

Kitobxonlik kompetensiyasi – bu shunchaki matni sharhlash emas, balki o'quvchining kognitiv, emotsional va ijtimoiy qobiliyatlarini birlashtiruvchi murakkab jarayondir. Zamonaviy pedagogikada ushbu kompetensiyani shakllantirish uchun an'anaviy metodlarning yetarli emasligi o'z isbotini topmoqda. Bugungi kun o'quvchisini kitobga jalb qilish uchun interfaol usullar, raqamli texnologiyalar, geymifikatsiya, loyihaga asoslangan ta'lim hamda integratsiyalashgan yondashuvlardan foydalanish talab etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qish savodxonligi va kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirish muammosi pedagogika fanining fundamental yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat filologik, balki kognitiv va ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida ham tadqiq etilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni shartli ravishda uchta yirik guruhga bo'lish mumkin: metodik asoslar, xalqaro baholash tizimlari bilan integratsiya hamda mutolaa madaniyatining psixologik jihatlarini.

O'zbekiston pedagogika fanida kitobxonlik metodikasining shakllanishi bevosita professor S. Matchonov nomi bilan bog'liq. Olim o'zining tadqiqotlarida an'anaviy o'qish darslaridagi beryoqlamalikka chek qo'yish, ya'ni shunchaki harf tanish va mexanik o'qishdan matni anglash bosqichiga o'tish zarurligini asoslaydi. U ta'kidlaganidek: "O'quvchining matn ustida mustaqil ishlashi, undagi obrazlar va g'oyalar dunyosiga kirib borishi – bu shunchaki bilim olish emas, balki hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonidir"^[3].

Professor B. To'xliyev esa adabiy ta'limning uzviyligini ta'minlashda o'quvchining estetik didini tarbiyalashni birlamchi vazifa deb hisoblaydi. Uning metodikasida innovatsion yondashuv matni tahlil qilish jarayonida o'quvchining shaxsiy munosabatini shakllantirishga qaratilgan^[4].

So'nggi yillarda o'qish savodxonligini xalqaro standartlar asosida baholash masalasi R. Safarova va N. G'ulomova kabi tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilmoqda. R. Safarova o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirishni loyihaviy ta'lim va modulli yondashuv bilan bog'laydi. Uning fikricha, innovatsion yondashuv o'quvchini tayyor axborotni qabul qiluvchidan axborotni qidiruvchi va tahlil qiluvchi subyektga aylantirishi lozim^[5].

Xususan, PIRLS dasturi doirasida matni tushunishning to'rt darajasi, ya'ni axborotni topish, xulosa chiqarish, g'oyalarni umumlashtirish va matn elementlarini baholash bugungi kunda o'qish savodxonligi darslarining mazmunini belgilab beruvchi asosiy mezon bo'lib xizmat qilmoqda^[6].

Adabiyotshunos olim D. Quronov mutolaa madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslarini tahlil qilar ekan, ideal kitobxon tushunchasiga to'xtaladi. Uning qarashlarida kitobxonlik kompetensiyasi – bu badiiy asarni idrok etish jarayonida muallif bilan intellektual muloqotga kirishish qobiliyatidir^[7]. Bu esa darslarda innovatsion

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi PQ-3271-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-3338600>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-6008663>



texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchining badiiy tafakkurini faollashtirishni taqozo etadi. Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar o'qish savodxonligini hayot davomida o'rganish konsepsiyasining kaliti deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, matnni tushunish ko'nikmasi boshqa barcha fanlarni o'zlashtirishning asosi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan pedagogik eksperiment ishlariga tayanadi. Tadqiqot jarayonida nazariy hamda empirik metodlar uyg'unligidan foydalanildi. Tadqiqotda miqdoriy va sifat tahlili usullari qo'llanildi. O'quvchilarning kitobxonlik darajasini aniqlashda PIRLS xalqaro baholash tizimi mezonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy o'quv dasturi talablari asosiy metodologik tayanch bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot jarayoni 2025–2026-o'quv yili davomida umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazildi. Tajriba ishlari uchun Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidagi 8-sonli umumta'lim maktabi tanlab olindi.

Tajriba guruhidagi 30 nafar o'quvchi uchun darslar innovatsion yondashuvlar, raqamli resurslar, geymifikatsiya hamda matnni tanqidiy tahlil qilish metodlari asosida tashkil etildi. Nazorat guruhidagi 30 nafar o'quvchi uchun esa darslar an'anaviy metodik qo'llanmalar asosida davom ettirildi.

Tadqiqotni tizimli tashkil etish uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

- anketalashtirish va so'rovnoma: o'quvchilarning kitobga bo'lgan munosabati hamda mutolaa motivatsiyasini aniqlash maqsadida ota-onalar va o'quvchilar o'rtasida so'rovnomalari o'tkazildi;
- pedagogik kuzatuv: dars jarayonida o'quvchilarning matn bilan ishlash faolligi bevosita kuzatildi;
- test sinovlari: o'quvchilarning o'qish savodxonligi, ya'ni matnni tushunish, mantiqiy bog'liqlikni topish hamda muallif g'oyasini anglash darajasini aniqlash uchun diagnostik va yakuniy testlardan foydalanildi.

Tadqiqot ishlari uchta izchil bosqichda amalga oshirildi:

- I. **Aniqlovchi bosqich.** Tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich bilim darajasi tekshirildi. Bunda o'quvchilarga badiiy matn berilib, uning asosida PIRLS darajalariga mos savollar taqdim etildi. Natijalar ikkala guruhda ham deyarli bir xil ko'rsatkich qayd etilganini ko'rsatdi.
- II. **Shakllantiruvchi bosqich.** Tajriba guruhlarida o'qish darslari innovatsion model asosida tashkil etildi. Ushbu bosqichda quyidagi innovatsiyalar joriy qilindi:
 1. "O'qish strategiyalari": ko'zdan kechirish, savol berish, o'qish, so'zlab berish va takrorlash;
 2. AKT vositalari: audiokitoblar hamda matn asosida tayyorlangan interfaol krossvordlar.
- III. **Nazorat bosqichi.** O'quv yili yakunida tajriba va nazorat guruhlaridan qayta test olindi. Natijalar matematik-statistik tahlil yordamida qayta ishlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash uchun statistik ko'rsatkichlar hisoblab chiqildi. O'quvchilarning kitobxonlik kompetensiyasi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

1. **Kognitiv mezon** – matndagi axborotni ajratib olish va tushunish.
2. **Motivatsion mezon** – kitob o'qishga bo'lgan ichki ehtiyoj va qiziqish.
3. **Faoliyatli mezon** – o'qilgan ma'lumotni tahlil qila olish va uni amaliyotda qo'llash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari o'qish savodxonligi darslarida innovatsion yondashuvlarning samaradorligini yaqqol ko'rsatib berdi. Tajriba guruhi va nazorat guruhi o'rtasidagi farq o'quvchilarning matnni tushunish darajasi, tanqidiy fikrlashi va mutolaaga bo'lgan qiziqishi asosida baholandi.

Tajriba davomida quyidagi innovatsion yondashuvlar qo'llanildi:

"Raqamli hikoyanavislik" va vizuallashtirish yondashuvi. Bu yondashuv o'quvchilarni faqatgina matn o'quvchi emas, balki uni raqamli vositalar yordamida qayta yaratuvchi darajasiga olib chiqadi. O'quvchilar badiiy asar yoki qisqa hikoyani o'qib chiqqach, voqealar rivojini xronologik tarzda vizuallashtirish vazifasini oladilar. An'anaviy qog'ozga rasm chizishdan farqli ravishda, ular kompyuter yoki planshetda AutoDraw kabi sun'iy intellektga asoslangan sodda grafik muharrirlardan foydalanadilar. O'quvchi matndagi asosiy qahramon, makon va vaziyatning eskizini chizadi, dastur esa uni sifatli tasvirga aylantiradi. So'ngra o'quvchilar ushbu

tasvirlarni ketma-ket joylashtirib, o'zlarining raqamli komikslari yoki slayd-shoularini yaratadilar. Bu matnni qismlarga ajratish va eng muhim epizodlarni saralash ko'nikmasini o'stiradi, tasavvur va kreativlikni raqamli formatda namoyon etishga o'rgatadi.

“Prompt-muhandisligi” elementlari orqali matnni tahlil qilish. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar bilan ishlashning boshlang'ich ko'nikmalarini o'qish darslariga integratsiya qilish mazkur yondashuvning asosini tashkil etadi. Bu yerda asosiy e'tibor to'g'ri savol qo'yish, ya'ni prompt tuzish san'atiga qaratiladi. O'qituvchi o'quvchilarga matnning ma'lum bir qismini, masalan, ertakning tugun qismigacha bo'lgan bo'lagini o'qitadi. Shundan so'ng o'quvchilarga “Asar qahramoni ushbu vaziyatdan qanday chiqib ketishi mumkin?” degan savol qo'yiladi. O'quvchilar o'z variantlarini yozma ravishda shakllantiradilar. O'qituvchi xavfsiz sun'iy intellekt modelidan foydalanib, o'quvchilar bergan ssenariy asosida matn qanday davom etishini ekranda ko'rsatadi. So'ngra sun'iy intellekt yaratgan matn va muallifning asl matni qiyoslanadi. Shu orqali o'quvchi voqealar rivojini mantiqiy bashorat qilishga o'rgatiladi, matn uslubi va muallif tilini tahlil qilish qobiliyati, shuningdek, to'g'ri va aniq savol shakllantirish ko'nikmasi rivojlantiriladi.

“PIRLS-kvest” – o'qish jarayonini geymifikatsiya qilish. Bu yondashuv matnni shunchaki o'qib berish o'rniga, uni mantiqiy jumboqlar zanjiriga aylantirishdan iborat. Matn 4 yoki 5 ta mantiqiy xatboshiga ajratiladi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Ularga faqat birinchi xatboshi beriladi. Ikkinchi xatboshini ochish uchun ular birinchi matn ichidan yashirin ma'noni topishlari, murakkab so'zning ma'nosini kontekstdan kelib chiqib tushuntirishlari yoki qahramonning niyati haqida to'g'ri xulosa chiqarishlari kerak bo'ladi. To'g'ri javob topilsagina, ular kalitni qo'lga kiritib, asarning keyingi qismini o'qish huquqiga ega bo'ladilar. Buni qog'oz konvertlar yordamida yoki raqamli platformalar, masalan, Plickers yoki Google Forms orqali tashkil etish mumkin. Natijada o'quvchilarda o'qishga nisbatan kuchli ichki motivatsiya va qiziqish uyg'onadi, axborotni tezkor qidirish, diqqatni jamlash va jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

“STEAM-mutolaa” – matnni fanlararo loyihalash. Bu o'qish savodxonligi darsini tabiiy fanlar (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san'at (Art) va matematika (Math) bilan integratsiya qilishda namoyon bo'ladi. O'quvchilar qandaydir tabiat hodisasi, kashfiyot yoki ixtiro haqidagi ilmiy-ommabop yoxud badiiy matnni o'qiydilar. Matn o'qib bo'lingach, darsning ikkinchi qismida o'quvchilar muhandis yoki olim roliga kiradilar. Ular matnda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, qog'oz, plastilin, cho'plar kabi oddiy vositalardan o'sha obyektning maketini yasaydilar yoki undagi matematik hisob-kitoblarni yechadilar. Bu o'qilgan axborotni shunchaki yodda saqlash emas, balki uni amaliyotga, hayotiy vaziyatlarga tatbiq eta olish layoqatini rivojlantiradi, boshlang'ich ta'limning o'zidayoq fanlararo bog'liqlikni chuqur anglashga xizmat qiladi.

Tajriba jarayonining yakuniy bosqichida o'tkazilgan diagnostik test natijalari o'quvchilarning o'zlashtirish darajasida sezilarli o'sish borligini tasdiqladi. Innovatsion metodlar qo'llanilgan guruhlarda o'rtacha o'zlashtirish koeffitsiyenti an'anaviy guruhlariga qaraganda yuqori bo'ldi.

1-jadval: Tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy natijalari qiyosiy tahlili (foizlarda)

Baholash mezonlari	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Farq
Matndagi faktlarni aniqlash (oddiy daraja)	72%	88%	+16%
Mantiqiy xulosalar chiqarish (o'rta daraja)	54%	76%	+22%
Matnni tanqidiy baholash (yuqori daraja)	38%	64%	+26%
O'rtacha ko'rsatkich	54,6%	76%	+21,4%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ayniqsa, tanqidiy baholash va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarida farq juda katta. Bu esa innovatsion yondashuvlarning o'quvchini nafaqat o'qishga, balki fikrlashga majbur qilishini ko'rsatadi.

Tajriba guruhida qo'llanilgan metodlar o'quvchilarning asar qahramonlari motivlarini tushunishiga yordam berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, darsda audiokitoblardan foydalanish va matnni vizuallashtirish o'quvchilarning matn mazmunini eslab qolish darajasini 30–35% ga oshirgan.

Pedagogik kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, an'anaviy darslarda o'quvchilar asosan matnni qayta so'zlab berish bilan cheklansalar, innovatsion model joriy etilgan sinflarda o'quvchilar:

- muallifning yashirin g'oyalarini topishga;
- voqealar rivojini bashorat qilishga;
- asar qahramonlarining xatti-harakatlariga axloqiy baho berishga o'rgandilar.



Professor R. Safarova ta'kidlaganidek, "o'quvchi o'zini matn yaratuvchisi yoki qahramoni sifatida his qilmas ekan, unda kitobxonlik kompetensiyasi to'liq shakllanmaydi" [8]. Bizning natijalarimiz aynan ushbu nazariy qarashni amaliyotda isbotladi.

Tadqiqotning muhim qismi o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtda kitob o'qishga bo'lgan munosabatini o'rganish edi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, tajriba guruhi o'quvchilarning 68 foizi o'qish darsidan so'ng asarning davomini kutubxonadan izlab topishganini bildirishgan. Nazorat guruhida bu ko'rsatkich atigi 24 foizni tashkil etgan. Bu holat bevosita Prezidentimizning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish borasidagi tashabbuslarining amaliy ifodasidir. Chunki darsda innovatsion ruhning bo'lishi o'quvchining maktab kutubxonasiga bo'lgan yo'lini ochib beradi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kitobxonlik kompetensiyasi faqatgina o'qish texnikasi bilan bog'liq emas. Bu jarayon kognitiv rivojlanishning yuqori bosqichidir. Tajriba davomida duch kelingan asosiy muammo ayrim o'quvchilarning lug'at boyligi pastligi bo'ldi. Biroq "Interfaol lug'at" metodikasi orqali bu muammoni bartaraf etish mumkinligi aniqlandi. Natijalarimiz xalqaro PIRLS tadqiqotlari xulosalari bilan hamohangdir: o'quvchi qanchalik ko'p badiiy matn ustida tahliliy ishlasa, uning umumiy savodxonlik darajasi shunchalik barqaror o'sadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kun ta'lim tizimining kechiktirib bo'lmaz vazifasidir. Amalga oshirilgan nazariy tahlil va pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Kompetensiyaning mohiyati: kitobxonlik kompetensiyasi shunchaki matnni o'qish ko'nikmasi emas, balki axborotni qabul qilish, uni tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish va olingan bilimlarni shaxsiy tajribaga tatbiq etishni qamrab oluvchi murakkab kognitiv jarayondir. Bu jarayon o'quvchining umumiy intellektual salohiyatini va "4K" ko'nikmalarini, ya'ni tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlikni shakllantirishda asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsiyalarning samaradorligi: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy o'qitish metodlaridan voz kechib, dars jarayoniga raqamli texnologiyalar, geymifikatsiya elementlari va matn ustida ishlashning interfaol strategiyalarini olib kirish o'quvchilarning mutolaaga bo'lgan ichki motivatsiyasini tadqiqot guruhlarida o'rtacha 20–25% ga oshirish imkonini berdi.

Xalqaro standartlar bilan uyg'unlik: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarida belgilangan vazifalar, xususan, PIRLS va PISA xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish o'qish darslari mazmunini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Tadqiqotimiz PIRLS formatidagi topshiriqlar o'quvchilarning matndagi yashirin ma'nolarni topish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantirishini isbotladi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, ta'lim sifatini oshirish va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Pedagog-o'qituvchilar uchun:

- **matn tanlashda differensial yondashuv:** o'quvchilarga nafaqat badiiy, balki informatsion matnlar bilan ishlash imkoniyatini berish lozim. Bu ularning hayotiy vaziyatlarda axborotni to'g'ri baholashiga yordam beradi;
- **vizualashtirish metodlari:** darslarda matnni grafik tashkilotchilar orqali tahlil qilishni tizimli yo'lga qo'yish kerak. Bu o'quvchining mantiqiy zanjir yaratish qobiliyatini o'stiradi;
- **"Qiziqarli mutolaa" texnologiyasi:** har bir darsning ma'lum qismini erkin mutolaaga ajratish va o'quvchilarda o'qilgan asar bo'yicha shaxsiy kitobxon kundaligi yoki raqamli bloglarini yuritish ko'nikmasini shakllantirish zarur.

Ta'lim muassasalari ma'muriyati uchun:

- **smart-kutubxonalar:** maktab kutubxonalarini nafaqat bosma kitoblar, balki elektron va audioresurslar bilan boyitish, kutubxonani o'quvchilar uchun ma'naviy markazga aylantirish;
- **mahorat darslari:** o'qituvchilar o'rtasida o'qish savodxonligini oshirish bo'yicha doimiy treninglar va innovatsion darslar tanlovini tashkil etish.

Ota-onalar va jamoatchilik uchun:

- **oila va maktab hamkorligi:** "Farzandimga kitob sovg'a qilaman" yoki "Oila bilan birga o'qiyamiz" kabi loyihalarni faollashtirish. Tadqiqot ko'rsatdiki, oilasida kitobxonlik muhiti bor o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichi 1,5 barobar yuqori bo'ladi.

O'qish savodxonligi darslarida innovatsion yondashuvlarni qo'llash shunchaki metodik yangilik emas, balki yangi avlodning intellektual xavfsizligini va raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik qadamdir. Mazkur yo'nalishdagi islohotlar izchil davom ettirilsa, O'zbekiston xalqaro ta'lim reytinglarida munosib o'rin egallashiga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-sonli qarori. (www.lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. Matchonov S. Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil mutolaasini shakllantirish muammolari. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 42.
4. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – B. 88–89.
5. Safarova R. va boshqalar. O'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirish texnologiyalari: metodik qo'llanma. – Toshkent, 2021. – B. 15–18.
6. G'ulomova N. PIRLS xalqaro baholash dasturi va boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi. "Xalq ta'limi" jurnali. – 2022. – 3-son. – B. 24.
7. Quronov D. Mutolaa madaniyati va adabiy ta'lim. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 114.
8. Safarova R. O'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirishning didaktik asoslari. "Uzluksiz ta'lim" jurnali. – 2021. – 2-son. – B. 12.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.